

#Innoweek_2024

O'tgan haftada "Barqaror rivojlanish uchun innovatsiyalar" shiori ostida bo'lib o'tgan "Innoweek-2024" 9-noyabr sanasida o'z ishini yakunladi.

Tadbirning yopilish marosimida xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligida faol ishtirok etganlar, xususan xorijiy delegatsiya vakillari, Fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lif muassasalari, tijoratlashtirish, startap loyihalari mualliflari, hududiy innovatsion tumanlar, yoshlar texnoparklari, Urban.Tech Uzbekistan 2024 xakatoni va Red Fest robototexnika musobaqasi g'oliblari, volontyorlar hamda hamkorlar esdalik sovg'asi bilan taqdirlandilar.

